

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLAR TAHLILIDA

Kaxorova Anora Nusratovna
Abdukadirova Komola Azimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasida assistentlari

Annotatsiya: *Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz jahonning iqtisodiy jihatdan baquvvat davlatlari iqtisodiyotida ham sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi. Tabiiyki, bu jarayon O'zbekiston iqtisodiyotini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, 2021-yilda mamlakat iqtisodiyoti kamida 5 foiz o'sishi maqsad qilingan. Biroq global iqtisodiyotdagi noaniqlik iqtisodiy o'sishning qo'shimcha zaxiralarini topish va safarbar qilishni talab etmoqda. Shu bois, Prezidentimiz barcha darajadagi rahbarlarga o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi holatni o'rganish, "o'sish nuqtalari"ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Iqtisodiy kompleks vakillarini mahallaga jalb etgan holda barcha organlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish kerakligi va masalani joyida hal etish bo'yicha ularga barcha vakolatlar berilishi aytiladi.*

Pullar mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlovchi bir qancha iqtisodiy o'zgarishlarga kuchli ta'sir etgani sababli, pul-kredit siyosatining butun dunyo iqtisodiyotida ahamiyati dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi. Pul-kredit siyosati davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatining asosiy asoslaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, respublikada inflyatsion jarayonlarning chuqurlashishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotning pul mablag'lariga bo'lgan talabini qondirish, yurtimiz aholisi va xo'jalik yurutuvchi subyektlarning kredit institutlarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish, milliy valyuta kurslarining barqarorligini ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *Pul-kredit siyosati, iqtisodiy o'sish, valyuta kursi, inflyatsiya, inflyatsion target, monetar target, yalpi ichki mahsulot kasb etadi.*

KIRISH

Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, iqtisodiyotda narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini 2023 yil yakuniga qadar 5 foizgacha pasaytirish maqsadlaridan kelib chiqilgan. Pandemiya sharoitida 2020 yilda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va narxlar barqarorligini ta'minlash vazifalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida Markaziy bankning asosiy stavkasi 16 foizdan 14 foizgacha pasaytirildi hamda pul-kredit sharoitlari biroz yumshatilib nisbatan qat'iy fazaga o'tkazildi. 2021 yilning o'tgan 9 oyida esa mazkur pul-kredit sharoitlari o'zgarishsiz saqlab qolindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Pul-kredit siyosati” atamasi odatda davlatning Markaziy banki yoki Markaziy bankga mos keladigan funksiyalarni bajaradigan tuzilma faoliyati doirasida ko‘rib chiqiladi. AQShlik, yaponiyalik va yevropalik iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan darsliklar, chop etilgan ilmiy maqolalarda “monetar siyosat” (monetary policy) tushunchasidan foydalaniladi. Masalan, taniqli iqtisodchi olim, AQSh FZT Prezidenti Bemanke (2003) o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarida faqat “monetar siyosat” tushunchasidan foydalangan Miller va D.Van-Xuzning(2009) fikriga ko‘ra, monetar siyosatning quyidagi ikki strategik maqsadini aytib o‘tdi:

tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta‘minlash;
inflyatsiyaning past va barqaror darajada bo‘lishiga erishish.

Yana bir guruh iqtisodchi olimlar e‘tirof etadilarki, Markaziy bankning monetar siyosat yordamida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori va barqaror darajasini ta‘minlashi ishsizlik darajasini pasaytirish imkonini berib, bu esa, Hukumat iqtisodiy siyosatining strategik maqsadlaridan biri bo‘lgan ishsizlikning past va barqaror darjasini ta‘minlash maqsadiga mos keladi.

Namozov (2018) monetar siyosatning strategik maqsadlari sifatida moliyaviy va iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish va to‘lov balansida barqarorligini ko‘rsatadi deb ta‘kidlaydi. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo‘lib, o‘z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi. Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijoratda va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini yaratish asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashtirilgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona pul-kredit siyosatini amalga oshiradi.

Mamlakatimizning pul-kredit sohasiga oid bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan, ularning bazilarini ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunda (Qonun-582-son,2019) Markaziy bank monetar siyosatining strategik maqsadi sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash ekanligi aytib o‘tilgan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF-5296, 2018) 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining strategik maqsadlari qilib, quyidagilar belgilanib olingan:

- narxlar barqarorligini doim ta‘minlab borish;
- bank tizimi barqarorligi asosida rivojlanishini ta‘minlash borish;
- to‘lov tizimi barqarorligi asosida rivojlanishini ta‘minlash kabilardir.

Metodologiya. Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.


Natijalar va tahlil. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020 yilning birinchi yarmida kichik bo‘lsada iqtisodiy o‘shish sur‘atlari saqlanib qolindi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 255,3 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shish ko‘rsatkichi 0,2 %ni tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich 6 %ni

tashkil etgandi. Sohalarda yalpi qo'shilgan qiymat o'sishi 0,3 % ni tashkil etdi. OTBning «Osiyo taraqqiyoti istiqbollari» (ADO) yillik iqtisodiy nashrining 2021 yilning aprel oyida e'lon qilingan nashrida O'zbekistonda 2021 va 2022 yillarda iqtisodiy o'sish darajasi mos ravishda 4 foiz va 5 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda. Unda qayd etilishicha, sanoatning ishlab chiqarish, tog'-kon sanoati va foydali qazilmalar qazib olish sohasidagi o'sish hisobiga jadal qayta tiklanganligi munosabati bilan mamlakatda 2021 yil birinchi yarmida 6,2 foizlik iqtisodiy o'sishga erishilgan. Savdo, transport va saqlash xizmatlari sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar tufayli iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishi 8 foizgacha tezlashgan. OTB O'zbekistonga pandemiyadan chiqish va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda ko'maklashishga sodiqligicha qoladi.

2022-yilning 1-yarmida iqtisodiyotimiz o'z potensialiga yetishi uchun, tartibga solinadigan narxlarning erkinlashtirilishi va tashqi inflyatsion xatarlarni inobatga olib, pul-kredit sharoitlari nisbatan qat'iy darajada saqlab qolinadi. Pul-kredit operatsiyalari ustuvor ravishda likvidlikni jalb etish maqsadlariga qaratiladi.

1-rasm.

Pul bozoridagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining muddatlar bo'yicha tasniflanishi.



Manba: Markaziy bank, Pul-kredit siyosati sharhi, 2021-yil 1-chorak. 40b

Ta'kidlash joizki, pul bozorida amalga oshiriluvchi operatsiyalarning 60 foizdan ortigi 1 kunlik depozitlar bo'lib, ular bo'yicha faol foiz stavkalari to'liq Markaziy bankning foiz koridori doirasida shakllanmoqda. Joriy yilimizning 1-choragi davomida 30 kun va undan ortiq bo'lgan olisroq muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari Markaziy bank foiz koridoridan yuqoriroq darajada shakllandi. Ammo, ushbu operatsiyalarning jami miqdordagi ulushi past bo'lib, chorakimiz davomida o'rtacha 10 foizni hamda 4 foizni tashkil etgan.

1-jadval

2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi pul agregatlarining tarkibi


Sana	Keng ma'nodagi pul massasi	Milliy valyutadagi pul massasi	Tor ma'nodagi pul massasi M1	Muomiladagi naqd pullar M0
1	2=3+8	3=4+7	4=5+6	5
2013	278,894	214,458	214,585	71,788
2014	356,447	290,557	207,112	98,272
2015	425,489	359,583	256,931	119,237
2016	530,332	447,215	298,318	137,464
2017	712,908	543,777	370,234	208,175
2018	894,873	594,699	419,735	248,031
2019	1,033,838	701,331	476,839	283,427
2020	1,180,245	819,012	558,458	314,518
2021	4,352,196	3,106,034	2,123,584	1,191,615

Manba: Pul-kredit siyosatining sharhi:2021-yil chorak. Toshkent 2021. O'zR Markaziy banki.57b

Pul agregatlarini o'rganish bizga avvalambor, mamlakatning moliyaviy barqarorligi va umumiy iqtisodiyoti to'g'risida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Misol qilib aytganda, juda tez o'suvchi pul agregatlari inflyatsiyaning haddan tashqari ko'tarish qo'rquviga olib kelishi mumkin. Agar muomalada bir xil hajmdagi tovarlar va mahsulotlar uchun to'lash uchun zarur bo'lgan miqdordan ko'p pul bo'lganda, narxlar oshishi mumkin. Ammo ortiqcha inflyatsiya yuzaga kelsa, markaziy bank guruhlarini foiz stavkalarini ko'tarishga yoki pul massasining o'sishini to'xtatishga majbur bo'lishi mumkin. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy innovatsion rivojlantirish maqsadida dolzarb masalalardan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Monetar siyosatning makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati, avvalo, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va inflyatsiya darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikda namoyon bo'ladi.

2-rasm

Markaziy bank asosiy stavkasi.



Manba: Markaziy bank. Pul-kredit siyosati sharhi, 2021-yil 4-chorak. 38-bet.

2021 yilni so'ngida yillik inflyatsiya darajasining pasayib borishi asosiy stavka real darajasining biroz yuqorilashiga va yil yakuniy faoliyati bo'yicha 3,7 foiz bandni tashkil etishiga xizmat qildi. Banklararo pul bozori foiz stavkasi esa chorak davomida kichik tebranishlar bilan 13 foiz atrofida shakllandi. Bunda, pul-kredit siyosati vositalariga avgust oyida ishlab chiqarilgan o'zgartishlar ushbu foiz stavkalarining Markaziy bank foiz koridoriga qaytishiga va muvozanatlashishiga xizmat qilgan bo'lsa, joriy yilda kiritilishi rejalashtirilayotgan o'zgartirishlar ushbu foiz stavkalarining asosiy stavkaga yanada yaqinlashishiga xizmat qilishi kutilmoqda. Yillik inflyatsiya darajasining pasayib borishi chorak davomida pul bozorida faoliyat bo'yicha o'rtacha tortilgan real foiz stavkalarining o'sishiga ham xizmat qildi. Xususan, dekabr oyida pul bozorida amaliyotlarning o'rtacha foiz stavkasi real hisobda 2.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, "nisbatan qat'iy" pul-kredit sharoitlarini ta'minlash uchun yetarli darajada shakllandi. Markaziy bank tomonidan ham Moliya vazirligi tomonidan ham 2021 yilning 4 choragida muomalaga chiqarilishini rejalashtirgan obligatsiyalar bo'yicha ishlab chiqarish rejalarini tuzildi va grafik e'lon qilindi va bu tijorat banklari uchun likvidliklarni boshqarish amaliyotlarini oldindan rejalashtirish imkonini berdi.

2-jadval

Markaziy bankning pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi

Maqsadi	Instrument	Shartlari	Foiz satvkasi
Likvidlikni taqdim etish	REPO auksioni	14 kungacha	Asosiy Stavka(quyi chegara)
	SVOP auksioni	14 kungacha	Asosiy Stavka(quyi chegara)
	Overnays REPO	1 kunlik (doimiy, cheklanmagan hajmda)	Asosiy stavka+2%
	Overnays SVOP	1 kunlik(doimiy, cheklanmagan hajmda)	Asosiy Stavka+2%
Likvidlikni jalb etish	Overnays deopozit operatsiyalari	1 kunlik(doimiy cheklanmagan hajmda)	Asosiy stavka-2%
	Depozit auksioni	14 kungacha (seshanba va payshanba)	Asosiy Stavka yuqori chegara)
	Markaziy bank obligatsiyalari	12 oygacha(grafig asosida)	Asosiy Stavka yuqori chegara)

Manba: Markaziy Bank. Pul-kredit siyosatining 2022va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.52-bet, 3-havola

Ta'kidlash joizki, bank tizimida likvidlikning etariligi yoki ortiqchaligini baholashda Markaziy bank xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan standartlardan foydalaniladi. Xususan, 2018 yildan boshlab majburiy zaxiralashda o'rtachalash koeffisientidan foydalanish yo'liga qo'yilgan, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 0,8 birlikni tashkil qiladi. Ya'ni, tijorat banklariga jalb etilgan depozitlari bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan majburiy zaxiralash hajmining 80%ini o'zlarining shaxsiy vakillik hisob varaqlarida saqlash imkoniyati ishlab chiqilgan.

XULOSA

2020-yilda koronavirus pandemiyasi va qat'iy karantin cheklovlari kiritilishi ta'sirida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz sharoida iqtisodiy faollikning keskin pasayishi, transchegaraviy aloqalarning cheklanishi va ta'minot zanjiridagi uzilishlar pul-kredit va soliq-byudjet siyosatlarining sezilarli darajada yumshatilishi kuzatildi. 2021-yilda esa, pandemiya bilan bog'liq vaziyatning nisbatan yaxshilanishi, karantin choralarining yumshatilishi,

iqtisodiyot subyektlarining pandemiyaga moslashuv darajasining ortishi hisobiga iqtisodiy faollikning sezilarli darajada ortishiga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudov N.M, Hakimov H. A -2019. "Makroiqtisodiy Tahlil". Toshkent, TDIU nashriyoti.
2. M.A. Mamatov-2021. "Iqtisodiy o'sish" Toshkent, "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" 45-47-b
3. Abdullayev O' (2018) Monetar siyosat, o'quv-uslubiy majmua, Toshkent-Moliya. 25-45b
4. Boboqulov T.I, (2018) U.A. Abdullayev Monetar siyosat. T. "Iqtisod-Moliya" b1
5. Моисеев С.Р. (2011) Денежно-кредитная политика: теория и практика: Учебное пособие. М.: Московская финансово-промышленная академия. с23
6. Виноградов Д.В., Дорошенко М-Е. (2009) Финансово-денежная экономика: Учебное пособие. М.: ГУ ВШЭ, С. 360.
7. Yaxshieva M. T. (Toshkent-2021.) "Monetarnazariyavasiyosat" 60b
8. Rashidov O, I.I. Alimov (Toshkent-2011) "Pul-Kredit va Banklar" T" Cho'lponnomidaginashriyot-matbaaijodiyuyi 31-46b
9. Yadgarova M, Ahmedova D (Toshkent-2017) "Pul va Banklar" Moliya. 87b
10. Shomurodov R.T (2015) Monetar siyosat, Ma'ruzalar matni. T, TMI, 151b
11. Rashidov O, Tojiyev R (2010) Markaziy bankning monetary siyosati. TDIU nashriyoti, 284-b
12. Thomas M, James S (2003) Money, Banking and the Economy, Norton company, New York, London. 485-p
13. Pul-kredit siyosati sharhi (2021-yil 2-chorak) Markaziy Bank. Toshkent. 56-67b
14. Pul-kredit siyosati sharhi. (2021-yil 4-chorak.) Markaziy Bank. Toshkent. 45-46b
15. Banklararo pul bozori sharhi. (2021-yil), Markaziy Bank. Toshkent. 1-7b
16. Pul-kredit siyosatining (2021) 2022-yil va 2023-2024 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari, Markaziy bank. Toshkent.